



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI “MILLIY G‘OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA
HUQUQ TA'LIMI “ YO'NALISHI

KURS ISHI

Mavzu: *Xorijiy mamlakatlarda davlatning hududiy tuzulishi*



Bajardi: *Vohidov Sirojiddin*

Tekshirdi: *Avazova Sh.*

Toshkent-2013

Mavzu: *Xorijiy mamlakatlarda davlatning hududiy tuzilishi*

Reja:

Kirish:

(Mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi):

1. *Davlatninig hududiy tuzilishi.*

2. *Unitar davlat tuzilishi.*

3. *Federativ davlatlarning tuzilishi.*

4. *Konfederatsiya tartibidagi davlat tuzilmalari.*

5. *Avtonomiya. Avtonomiya turlari.*

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha ijtimoiy islohotlarning negizida asosiy bosh g'oya qilib yurt tinchligi va xalq farovonligi maqsad qilib olingan ekan, shubhasiz, xalqaro maydondagi tajribalarni o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish orqali bu maqsadlarga osonroq va jadallik bilan erishish mumkin.

Davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari mexanizmini yaratish borasida jahondagi yetakchi davlatlardan andoza olish bilan birga, ming yillardan beri shakllangan milliy urfodat va an'analar, ajdodlarimizning boy merosini o'zlashtirgan holda jamiyatimiz hayotini yanada demokratlashtirish imkoniga ega bo'lamiz.

Har bir davlatning o'z boshqaruv usuli va alohida o'ziga xos davlat tuzilish shakli mavjud. Bu tuzilish va shakllarning har xil bo'lishi har bir davlatlarning davlatchilik tarixiga borib taqaladi. Ma'lum bir sharoit taqozosi orqali davlat hududiy tuzilmasi o'zgarish holati kuzatilishi mumkin. Bu o'zgarishlar qay hollarda yuz beradi, sababiyatlari, uning oqibatlari va va boshqa turli davlat hududiy tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni tahlil qilish zarur.

Ushbu kurs ishining maqsadi: Xorijiy mamlakatlarda davlatning hududiy tuzilishini yoritib berishdan iborat.

Xalqaro huquqda umume'tirof etilgan qoidalarining ustuvorligini tan olgan holda hamda unga og'ishmay amal qilayotgan demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy huquqini o'rganish orqali, **birinchidan**, milliy huquqni yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'lsak, **ikkinchidan**, ushbu davlatlarning mavjud konstitutsiyaviy tuzumi to'g'risidagi tasavvurlarimiz xalqaro va millatlararo do'stlik rishtalarining mustahkamlanishiga asos soladi, **uchinchidan**, dunyodagi davlatlarning tuzilish shakllarini farqlash va ularning turli xil jihatlarini o'rganish maqsaddir.

Ushbu kurs ishining vazifasi:

Birinchidan, davlat tuzilishi va shakliga daxldor tushunchalarni o'rganish;

Ikkinchidan, unitar davlat tuzulishini o'rganish;

Uchinchidan, federativ davlat tuzulishiga taluqli bo'lgan bilimlarni o'rganish;

To'rtinchidan,konfederatsiya tipidagi tuzulmalarni bilish va o'ganish;
Beshinchidan,avtonomiya tuzulishiga oid bo'lgan bilimlarni ochib berishdan
iborat.

1. DAVLAT TUZILISHI VA SHAKLIGA OID TUSHUNCHALAR

Har bir davlat o'z hududiga ega va bu hududning daxlsizligini himoya qilish uning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Har bir davlatning yaxlit hududi muayyan tarzda, albatta, ma'lum qismlarga, bo'linmalarga bo'lingan bo'ladi. Davlat hududini bunday bo'lish uni boshqarishni osonlashtirish, samarali boshqarish maqsadlarini ko'zlaydi.

Davlatning hududi qanday tarzda tashkil etilganligini, ya'ni markaz bilan hududiy birlikning o'zaro munosabati qanday, qanaqa ma'muriy hududiy bo'linmalarga bo'lingan kabi masalalar "davlatning tuzilish shakli" degan atama bilan ancha vaqtdan beri ifodalanib kelgan. Biroq tuzilish degan ibora juda serma'no bo'lganligi tufayli, keyingi paytlarda konstitutsiyaviy yuridik adabiyotda "hududiy-siyosiy tuzilish", siyosiy hududiy tuzilish kabi atamalarni qo'llash keng tarqalmoqda.

Davlat tuzilishi shakli deganda, mamalakat ma'muriy-hududiy birliklarining o'zaro munosabatlari, davlat va uni tashkil etgan hududiy birlikning, ayrim qismlarning boshqaruvini amalga oshiruvchi markaziy va mahalliy idoralar o'rtasidagi munosabatlarning tabiati tushuniladi.

Davlat tuzilishi - davlatning ma'muriy-hududiy bo'linish tamoyillari va tuzilishini hamda ma'muriy hududiy birliklarning huquqiy maqomini, davlatning markaziy organlari bilan mazkur organlarning hududiy birliklardagi mahalliy organlar bilan o'zaro munosabatlari qanday xususiyatlardan iborat ekanligini qamrab oluvchi tushunchadir.

Milliy-davlat tuzilishi - davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlari xarakteri va hajmidan iborat ekanligi tushuniladi.

Davlatning hududiy tuzilishi (ma'muriy – hududiy tuzilish) – davlat tuzilishi tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, davlat o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun, muayyan cheklangan hududini ma'lum bir hududiy (ma'muriy-

hududiy) birliklarga bo‘linishini, ularning mahalliy organlari bilan markaziy organlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning xususiyatlari tushuniladi. Ushbu hududiy birliklarda, davlat apparati mahalliy organlarining strukturasi tuziladi. Shuning uchun davlatning hududiy tuzilishini ma‘muriy-hududiy tuzilish deb atash maqsadga muvofiq.

Davlatni hududiy jihatdan tashkilashtirish o‘z *maqsadi* va *vazifalariga* ko‘ra, nafaqat **ma‘muriy-hududiy**, balki:

iqtisodiy-hududiy (masalan, erkinsavdoqiluvchizonalar);

harbiy-hududiy(masalan, mamlakat hududini harbiy okruglarga bo‘linishi);

siyosiy-hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar);

ekologik-hududiy shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Federativ davlatlarda ma‘muriy – hududiy birliklar o‘zining muayyan hokimiyat organlari tizimiga, Konstitutsiya va qonunchiligiga, shuningdek, hududiy ramzlariga ega bo‘ladi.

Ma‘muriy – hududiy birlik – davlat ma‘muriy –hududiy tuzilishi tizimining mustaqil tarkibiy qismi bo‘lib, bir necha pog‘onada tashkil etilishi mumkin.

Tegishli ma‘muriy hududni alohida ma‘muriy-hududiy birlik sifatida e‘tirof etish uchun faqat davlat hokimiyati mahalliy organlarni tashkil etish bilan chegaralanmasdan, balki mahalliy hududning iqtisodiy-madaniy rivojlanganligi darajasi, aholining hududiy uyushishi bilan ham bog‘liqdir.

Davlatning hududiy-siyosiy tuzilishi bu davlatning hududiy-siyosiy tuzilmasi, ya‘ni yaxlit davlat hududining qismlarga bo‘linishining muayyan tartibi, ularning huquqiy holati, markaziy organlarining hududiy bo‘linmalar bilan o‘zaro munosabatidir.

Davlat tuzilishi shakliga quyidagi turli xil omillar ta‘sir etadi:

- 1) davlat va jamiyat oldida turgan iqtisodiy vazifalar;
- 3) davlatdagi siyosiy kuchlarning o‘zaro nisbati;
- 4) davlat hududida istiqomat qilayotgan aholining ko‘p millatligi va o‘zaro

munosabati;

- 5) davlat hududining katta yoki kichikligi;
- 6) uzoq yillar davomida shakllangan tarixiy an'analar;
- 7) jamiyatdagi mavjud ijtimoiy ong.

Demak, davlatning hududiy siyosiy tuzilishi o'zida mana shu masalalarni ifoda etadi va ular ta'siri ostida shakllanadi. Shu munosabat bilan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyasida davlatning hududiy-siyosiy tuzilishi qanday mustahkamlanganligi masalasi muayyan qiziqish uyg'otadi.

Ta'kidlash kerakki, deyarli barcha davlatlarning Konstitutsiyalarida davlatning hududiy tashkil etilishi mustahkamlangan, faqat bir xilda emas, ya'ni ba'zi davlatlar Konstitutsiyalari aniq qilib, davlatning hududiy tuzilishini belgilab qo'ygan bo'lsa, ba'zi davlatlarning konstitutsiyalarida to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlab qo'ymaydi, biroq konstitutsiyaning boshqa moddalari mazmunidan kelib chiqib, ushbu davlatning hududiy tuzilish shakli qanaqa ekanligi bimalol ayon bo'lib turadi.

Hatto, ba'zi Konstitutsiyalarda davlatning bir tuzilish shakliga ega ekanligi ko'rsatilgan holda, amalda boshqa shaklga mansub bo'ladigan hollar ham uchrab turadi. Masalan, Shveytsariya Respublikasi, Konfederatsiya deb atalsa-da, aslida u federativ tuzilish shakliga ega,

Davlatning hududiy tuzilish shakliga oid normalar, odatda quyidagi masalalarni o'zida ifoda etadi:

- davlatning hududiy tuzilishining konkret shaklini, masalan, unitar, federativ, konfederativ, avtonomiya va boshqa shakllardan qaysi biri mavjud bo'lsa, o'sha mustahkamlab qo'yiladi;
- davlatning tarkibiy qismlarini - huquq va majburiyatlari yig'indisini, ya'ni kompetensiyasi mustahkamlanadi;
- davlat hududi aniqlanadi - davlatning huquqiy ta'siri tarqaladagan makon belgilanadi;
- davlatning markaziy organlari bilan, bevosita uning tarkibiga kirmaydigan, biroq unga tobe bo'lgan hududlar o'rtasidagi munosabatni mustahkamlaydi.

Ba'zi davlatlarning Konstitutsiyasida, agar ular federativ tuzilish shakliga mansub bo'lsa, shu federatsiya tarkibiga kiruvchi barcha subyektlar ro'yxati ko'rsatilishi ham mumkin (masalan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi).

Shunday holatlar ham bo'ladiki, ba'zi davlatlardagi davlat tuzilish shaklini yuqorida aytib o'tilgan omillar ta'siri bilan tushuntirish qiyin, ulardagi tuzilish shakli o'sha davlatning bir xususiyati, o'ziga xos jihati sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, davlatning tuzilish shakli bilan uning ko'p millatlilik darajasi o'rtasida ham chuqur bog'liqlik yo'q, masalan unitar davlat hisoblanadigan Bolgariya ko'p millatli, Federativ davlat hisoblanadigan Germaniya asosan bir millatli, demak, federativ davlat ham ko'p millatli, ham bir millatli bo'lishi mumkin, shuningdek, unitar davlat ham yo ko'p millatli yo bir millatli bo'lishi ham mumkin.

Hozirgi kunda, davlatning quyidagi tuzilish shakllari mavjud:

- *unitar;*
- *federatsiya;*
- *Konfederatsiya;*
- *avtonomiya va boshqa shakllar.*

Shunday qilib, davlatning hududiy tuzilish shakli har bir davlat hududining qanday tashkil etilganligi, uning markaziy organlari bilan tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatning asoslari va tartibini ko'rsatib beradi.

2. UNITAR DAVLAT TUZILISHI

Davlat tuzilish shaklining bir ko'rinishi bo'lgan unitar davlat haqida fikr yuritishdan oldin, bu atamaning lug'aviy ma'nosini bilib olish lozim. "Unitar" iborasi lotincha "*unitas*" so'zidan olingan bo'lib, "**birlik**" degan ma'noni anglatadi, tarjimasi esa "**yagona**", "**yaxlit**" degan ma'nolarni anglatadi.

Unitar davlat bu yagona, yaxlit davlat bo'lib, uning tarkibiy qismlari mustaqillikka ega emas, ya'ni davlat tuzilmalari hisoblanmaydi. Biroq unitar

davlat tarkibida avtonom tuzilmalar bo'lishi mumkin. Masalan, Ozarbayjon tarkibida, Tog'li Qorabog' avtonom tuzilmasi mavjud. Unitar davlatning tarkibiy qismlari, odatda, ma'muriy hududiy birliklardan iborat bo'ladi: viloyat, provinsiya, guberniyalar, ular keyin, tegishlicha yana mayda bo'linmalarga bo'linib ketishadi, masalan, rayon, tuman, uyezd va boshqalar misol bo'la oladi.

Hozirgi kunda, aksar ko'pchilik davlatlar unitar davlatlardir, ularning soni 160 ga yaqin. Buning sababi shundaki, unitar davlatni boshqarish ancha samarali hisoblanadi. Unitar davlatlar jumlasiga Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Gretsiya, Ispaniya, Gollandiya va boshqa bir qator davlatlar kiradi.

Chudakov M.F.ning «Конституционное (государственное) право зарубежных стран» kitobida unitar davlatning bir qator belgilari ko'rsatilgan:

- yagona qonun chiqaruvchi hokimiyatning mavjudligi -butun mamlakat uchun umumiy bo'lgan parlamentning borligi;
- yagona ijro hokimiyatining mavjudligi;
- butun mamlakat miqyosida yagona sud hokimiyatining mavjudligi;
- butun mamlakat hududida amal qiladigan yagona Konstitutsiyaning mavjudligi;
- yagona qonunchilik tizimi - mamlakat hududida istiqomat qiladigan barcha aholi uchun umummajburiy bo'lgan yagona huquq tizimining mavjudligi;
- mamlakat hududini siyosiy mustaqillikka ega bo'lmagan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linganligi;
- yagona fuqarolikning mavjudligi.

Har bir unitar davlatning ma'muriy hududiy birliklari soni turlicha bo'lishi mumkin. Ma'muriy-hududiy bo'linmalar ikki, uch va to'rt bo'g'inli bo'lishi mumkin, masalan, ikki bo'g'inli bo'lsa, viloyat - tuman, uch bo'g'inli bo'lsa, taxminan viloyat - tuman - jamoa, to'rt bo'g'inli bo'lsa, masalan, Fransiyada region – okrug – departament - jamoa shaklida bo'lishi mumkin,. Kichkina, mitti davlatlarning ba'zilarida umuman ma'muriy-hududiy bo'linish amalga oshirilmagan, masalan, Okeaniyada joylashgan Nauru va Tuala, Monako, San-Marino.

Unitar davlatlar yana tarkibidagi ma'muriy hududiy birliklarining huquqiy maqomi va xususiyatlariga ko'ra:

Oddiy unitar davlat. Bunday davlatlarning ma'muriy- hududiy tuzilishi sodda bo'lib, ma'muriy-hududiy birliklar bevosita markazga bo'ysunadi va huquqiy maqomi, nomlanishi hamda ijtimoiy tarkibi jihatdan aksariyat hollarda bir xil bo'lishi kuzataladi. Ularning tarkibida hududiy avtonomiyalar mavjud bo'lmaydi (Polsha, Misr, Qozog'iston va boshqalar).

Murakkab unitar davlat. Ko'pchilik unitar davlatlarda bir yoki bir necha ma'muriy-hududiy birliklarga, o'lkalarga imtiyozli huquqiy maqom beriladi (masalan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ozarbayjon va boshqalar). Bunday unitar davlat ma'muriy avtonomiyaga ega bo'ladi. Qayd etilgan davlat tuzilishi shakli hududiy o'lkalarning maxsus manfaatlariga e'tibor berish zarur bo'lgan hollarda qo'l keladi. Bunday holat alohida millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi, etnik va milliy kamsitilishini oldini olish, ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyatini saqlab qolish va hokazolarda kuzatiladi. Mazkur avtonomiyalarda o'zini o'zi boshqarish huquqi mamlakat aholisining boshqa qismiga qaraganda, bir muncha kengroq bo'ladi. Lekin ularning mustaqilligi markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina saqlab qolinadi. Amaliyotda ayrim hollarda bunday avtonomiyalar mustaqillik uchun kurash olib borishlari kuzatilib, aksariyat hollarda ayanchli oqibatlar, jumladan, fuqarolik urushlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat idoralari o'rtasidagi munosabatning xususiyatlaridan kelib chiqib, unitar davlatlar ***markazlashgan, nisbiy markazlashgan*** va ***markazlashmagan*** turlarga bo'linadi.

Markazlashgan unitar davlatlarda, ma'muriy-hududiy birliklarni boshqarish davlat hokimiyati markaziy organlari tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Bunda markazdan tayinlanadigan mansabdor shaxslar tegishli ma'muriy hududni boshqaradi. Bunga misol tariqasida, Indoneziya, Tailand davlatlarini keltirish mumkin.

Nisbiy markazlashgan unitar davlatlarda ma'muriy hududiy birliklarni

boshqarish bir vaqtini o'zida markazdan tayinlanadigan mansabdor shaxslar hamda mahalliy vakillik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunga Fransiya mahalliy boshqaruvidagi markazdan tayinlanadigan prefektlar va munitsipal Kengashlarni misol qilib keltirish mumkin.

Markazlashmagan unitar davlatlarda esa ma'muriy hududiy birliklar ancha mustaqil bo'lib, markazga umuman bo'ysunmaydi hamda boshqaruv to'la-to'kis mahalliy vakillik organlari vakolat doirasiga kiritiladi (Buyuk Britaniya grafliklari, AQSH shtatlari, Kanada provinsiyalaridagi mahalliy boshqaruvni saylab qo'yiladigan organlar amalga oshiradi.)

Nomarkazlashgan unitar davlatlarda, joylarga mansabdor shaxslarni tayinlash holati yo'q aholining yig'inlari, Kengashlari mahalliy boshqaruvni amalga oshiradi yoki amaldorlar joylik aholi tomonidan saylab qo'yiladi: Buyuk Britaniya, va boshqalar.

Chudakov M.F.ning ta'kidlashicha, bunday tizimni tasnifga kiritish ma'lum ma'noda nisbiy xarakterga ega, chunki, ikki organning birgalikda kelishi, odatda, unitar davlatning barcha bo'g'inlarida uchramasligi mumkin, masalan, jamoalarda tayinlab qo'yiladigan lavozimning o'zi yo'q, ba'zilarida esa saylab qo'yiladigan organ yo'q, masalan, Germaniya va Fransiyaning ba'zi ma'muriy-hududiy birliklarida va hokazo.

Unitar davlat tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklarning tashkil etilish prinsipi ham e'tiborga sazovor. Bu prinsiplar ham bir necha xil bo'lishi mumkin:

- aholining teng sonliligi prinsipi;
- yirik iqtisodiy, sanoat va jo'g'rofiy markazlar atrofida ma'muriy-hududiy birlik tashkil etish prinsipi.

Chudakov M.F.ning fikricha, ma'muriy birliklar davlat hokimiyatini amalga oshirishni, mamlakatni boshqarishni yengillashtirishga qaratiladi. Bundan tashqari ayrim davlatlarda oddiy ma'muriy-hududiy birliklardan tashqari maxsus bo'linmalar ham mavjud, xususan, mamlakat hududi standart ma'muriy bo'linmalarga, maktab okruglariga, sud va harbiy okruglarga, saylov okruglariga bo'linishi ham mumkinligi ta'kidlanadi. Masalan, saylov vaqtida mamlakat hududi

bir qator saylov okruglariga bo‘lib tashlanadi. Albatta, bunday okruglar chegaralari ma’muriy-hududiy birliklar hududiy chegaralari bilan mos bo‘lmasligi mumkin.

Shunday qilib, unitar davlatning tarkibiy qismlari siyosiy mustaqillikka ega bo‘lmay, balki bevosita markazga bo‘ysunadi.

3. Federativ davlat

Xorijiy mamlakatlarning hududiy davlat tuzilishi shakli ichida federatsiya muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumki, davlatlar tuzilish shakliga ko‘ra, oddiy va murakkab tuzilish shakllariga bo‘linadi. Olimlar, mutaxassislar davlat tuzilish shaklining oddiy shakliga, odatda, unitar davlatlarni kiritishadi, murakkab davlat tuzilishi shakliga esa, federatsiya va Konfederatsiyani kiritishadi.

Federativ davlat tuzilish shakli haqida gapirishdan oldin, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosini anglab olish zarur. Federatsiya atamasi lotin tilidagi “*foederatio*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “**ittifoq**”, “**birlashma**” ma’nolarini anglatadi.

Federatsiya bu - davlatlar ittifoqi bo‘lib, uning tarkibiga ittifoq huquqlari bilan rasmiy cheklangan, yuridik mustaqillikka ega bo‘lgan davlat tuzilmalari kiradi. Federativ davlat unitar davlatdan farq qiladi, bu farq federatsiya tarkibiga kirgan tarkibiy qismlarning ma’muriy-hududiy birlik emas, balki davlat tuzilmalaridan iborat ekanligidadir. Federatsiyada yagona konstitutsiya, yagona ittifoq (federal) davlat hokiyati organlari bo‘ladi, yagona fuqarolik, yagona pul birligi va shu kabilar amal qiladi.

Unitar davlatdan farqli ravishda federatsiya hokimyat oily organlarini ikki ytizimiga – ***federal organlar*** va ***federal a’zolarining tegishli organlariga*** ega bo‘ladi.

Federal organlar mamlakatning barcha hududida o‘z vakolat va vazifalarini amalga oshiradi. Federatsiyani tashkil etuvchi davlat tuzulmalari tom ma’noda

davlat hisoblanmaydi. Ular suverenitetga, ittifoqdan bir tomonlama qchiqish huquqiga ega bo'lmaydi, yuridik jihatdan xalqaru munosabatlarda qatnashish huquqidan mahrumdir.

Federatsiyaning eng zarur belgilaridan biri – federal parlamentning ikki palatali tuzilmasidir.

Odatda Federatsiya a'zolarining o'z konstitutsiyasi bo'ladi, lekin bu konstitutsiya a'zo mamlakatning ichida amal qiladi.

Federativ davlatlar tarkibiga kirgan davlat tuzilmalari turlicha nomlanadi, masalan Germaniyada yerliklar, AQSH, Hindistonda shtatlar, Kanada va Pokistonda provinsiyalar, Birlashgan Arab Amirliklarida amirliklar, Shveytsariya kantonlar deb ataladi. Ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda ularni umumlashtirib federatsiya a'zolari yoki subyektlari deb atash keng tarqalgan.

Federatsiyalarni tashkil topish asoslariga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

- *shartnomaga asoslangan,*
- *shartnomaga asoslanmagan*

Shartnoma asosida tashkil topgan federatsiya bu qoidaga ko'ra, bo'lajak federatsiyaning a'zolari bo'lmish mustaqil davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tashkil topgan ittifoq davlatidir. Bunday federatsiyalarga misol tariqasida, Shveytsariya, AQSH, Avstraliya va Malayziyalarni keltirish mumkin.

“Shartnomaga asoslanmagan federatsiyalarda esa, davlat hokimiyati ma'muriy birliklarni huquqlarini kengaytirishi asosida, ular federatsiya subyektlariga aylanadi. Bunday o'zgarish avval unitar shaklda bo'lgan davlatning ixtiyoriga binoan amalga oshiriladi. Bunday federatsiyalarga misol qilib, Kanada, Hindiston, Pokiston, Nigeriyalarni keltirish mumkin.” deb yozadi Chudakov M.F. Bunday federatsiyaning subyektlari shartnomali Federatsiyalardan farq qilgan holda, suverenitetga ega bo'lmaydilar.

Adabiyotlarda federatsiyalarning shuningdek, **milliy federatsiya** turi ham farqlanadi. Bunday federatsiyalarning barcha federatsiya subyektlari bir milliatga mansub aholidan tarkib topgan bo'ladi.

Aytish kerakki, federatsiyalarni yuqorida keltirilgan tarzda ikki guruhga bo'linishi, asosan tarixiy xarakterga ega bo'lib, hozirgi kunda, deyarli barcha federatsiyalarning tashkil etish asosida ikkala holat ham ifodalanadi.

Chirkin V.E.ning federatsiyalarning o'ziga xos belgilarini ikki guruhga ajratadi:

- *faktik tarkib topgan belgilar;*
- *yuridik mustahkamlangan belgilar.*

Federatsiyaning faktik, real mavjud belgilariga quyidagilar kiradi:

1. Davlat-siyosiy tuzilmalarning birlashuvi jo'g'rofiy xarakterga, qo'shnichilik yoki umumiy iqtisodiy, harbiy, bojxona, savdo manfaatlariga mos tarzda amalga oshiriladi.

2. Federatsiyadan chiqish huquqining mavjud emasligi (*sesessiya*). Aytish joizki, bunday prinsip, odatda, huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilmaydi, biroq nazarda tutiladi. Istisno tariqasida, ayrim misollar mavjud, masalan, Malayziya Federatsiyasidan 1965 yili Singapur ajralib chiqqan.

3. Federatsiya a'zolarining huquqiy maqomi bir xil bo'lmasligi, bunday federatsiyalarni ba'zan *assimetrik* federatsiya ham deyishadi, Aholisi, hududi katta bo'lgan federatsiya subyektlarining huquqi ham odatda ancha keng bo'ladi.

4. Federatsiyaning hududi uning tarkibiga kiruvchi subyektlar hududiy yig'indisidan iborat bo'ladi. Mana shu belgilari bilan federatsiya unitar davlatdan farq qiladi.

Federatsiyaning yuridik belgilariga:

- federatsiya davlat sifatida umumiy Konstitutsiyaga ega bo'ladi va ushbu Konstitutsiyaga subyektlarning Konstitutsiyalari to'la mos kelishi lozim;
- federatsiya qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga ega va ularning vakolatlari butun mamlakat hududida amal qiladi;
- federatsiya subyektlari ham o'z qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari tizimlariga ega va ular markaziy organlar kompetensiyasidan farq qiladi;
- federatsiya bilan federatsiya subyektlari o'rtasida vakolatlar aniq chegaralangan bo'ladi, ayrim masalalarni faqat federativ organlar, ayrim

masalalarni esa faqat federatsiya subyektlari amalga oshiradi, ayni paytda, federatsiya bilan uning subyekti birgalikda amalga oshiradigan masalalar doirasi ham o'zaro aniqlab olinadi;

- federatsiyaning Oliy sudlari butun mamlakat uchun eng oliy instansiya sudi hisoblanadi. Federatsiya konstitutsiyaviy nazorat sud organlari ham mavjud bo'lib, ular federatsiya subyektlari qonun hujjatlarining federal konstitutsiyaga muvofiqligi ustidan konstitutsiyaviy nazorat funksiyasini amalga oshiradi;

- federatsiya miqyosida yagona federal fuqarolik joriy etiladi. Ba'zi hollarda, federatsiya subyektlarining ham fuqaroligi rasman e'tirof etiladi, lekin bu shartli xarakterga ega holos;

- federatsiyaning yana bir muhim belgisi bo'lib, unda ikki palatali parlamentning mavjudligi hisoblanadi. Ko'pgina federatsiyalarda parlamentning yuqori palatasini shakllantirish federatsiya subyektlarining teng sonli vakillik prinsipi asosida amalga oshiriladi. Bunday federatsiyalarga AQSH, Meksika, Avstraliya, Venesuela, Braziliya kabi davlatlarni ko'rsatish mumkin.

Federatsiya sharoitida eng muhim masala federatsiya bilan uning subyektlari o'rtasida kompetensiyalarning taqsimlanishi hisoblanadi. Ularni uchga ajratish mumkin:

- ***federatsiyaning mutlaq vakolatlari;***

- ***federatsiya va uning subyektlari birgalikda hal etadigan masalalar bo'yicha vakolatlar;***

- ***federatsiya subyektining mutlaq vakolatlari.***

Birinchi masala, ya'ni federatsiyaning mutlaq vakolatlarini tashkil etuvchi masalalarga mudofaa, tashqi ishlar, pul muomalasi, soliqlar, federal organlarni tashkil etish, federatsiya bilan uning subyektlari va subyektlar o'rtasidagi nizolarni hal etish kabi masalalar kiradi.

Birgalikdagi kompetensiyaga kiruvchi masalalarni federatsiya ham, subyektlar ham hal qilishi mumkin (ko'pchilik hollarda ustuvorlik federatsiya tomonida bo'ladi).

Federatsiya subyektining mutlaq vakolatlariga kiruvchi masalalar qatoriga

mahalliy organlarni tashkil etish, jamoat tartibini saqlash, yo'llar qurish, atrof - muhitni muhofaza qilish, mahalliy miqyosda normativ aktlar qabul qilish, madaniyat, ta'lim, tibbiyot masalalarini kiritish mumkin.

Shunday qilib, federatsiya davlat tuzilish shakli hozirgi kunda, bir qancha davlatlarda amal qilib, o'zining samarali ekanligini ko'rsatmoqda.

4. Konfederatsiya tartibidagi davlat tuzilmalari

Xorijiy mamlakatlarning davlat tuzilish shakllari ichida xalqaro shartnomalar asosida tashkil topgan tuzilmalar ham mavjud. Bunday davlat-hududiy tuzilmalarni **Konfederatsiya** deb atashadi.

Konfederatsiya (*confoederatio* – ittifoq, birlashma):

1) davlat tuzilishining bir shakli; unga ko'ra Konfederatsiyani tashkil qiluvchi davlatlar o'z mustaqilligini to'la saqlab qoladi, o'z davlat hokimyatini tuzadi; maxsus birlashgan organlar esa muayyan (harbiy, tashqi siyosiy) maqsadlarda harakatlarni muvofiqlashtirish uchungina tuziladi(hozirgi kunda dunyoda faqatgina bitta konfederatsiya – Yevropa Ittifoqi mavjud);

2) biron – bir ijtimoiy yoki boshqa xil tashkilotlarning nomi Konfederatsiya deb ataladi (masalan: Fransiya Umummehnat Konfederatsiyasi va hokazo).

Konfederatsiya bu - ma'lum bir maqsadlarda birlashgan mustaqil davlatlar ittifoqidir. Konfederatsiya federatsiyadan farq qilgan holda, u ittifoq davlati emas, balki davlatlar ittifoqi hisoblanadi. Konfederatsiya iqtisodiy, siyosiy, harbiy, bojxona va boshqa maqsadlarda tuzilishi mumkin.

Konfederatsiya o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun va a'zo davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun oliy organlar tuzishi mumkin, biroq bu organlar a'zo davlatlarning hukumatlari bilan muloqotda bo'lishi, bevosita aholiga murojaat qilish huquqiga ega emas.

Konfederatsiya a'zolari **nullifikatsiya** huquqiga egadirlar, ya'ni ittifoq aktini a'zo davlat qabul qilmasligi, tasdiqlamasligi mumkin. Konfederatsiyaning umumiy

organlari qabul qilgan aktlar uning barcha a'zo davlatlari tegishli organlari tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyingina, butun konfederatsiya hududida amal qiladi.

Ta'kidlash kerakki, konfederatsiya federatsiyaga nisbatan uncha mustahkam emas, chunki, u odatda, biron-bir masalalani hal etish ehtiyoji orqali tashkil etiladi. Tarixda konfederatsiyalar uncha ko'p bo'lmagan, bo'lganlari ham keyinchalik yo federatsiyaga birlashgan, yoki alohida-alohida unitar davlatlarga bo'linib ketishgan.

M.F. Chudakov va V.E.Chirkinning yozishicha, konfederatsiyaga 1579-1795-yillar davomida amal qilgan Niderlandlar Konfederatsiyasini, 1776-1787-yillardagi AQSH Konfederatsiyasini hamda 1291-1798-yillardagi Shveytsariya Konfederatsiyasini misol tariqasida keltirilgan. Hozirgi kunda, Shveytsariya rasman konfederatsiya deb nomlansa-da, biroq aslida federatsiya hisoblanadi. 1815-1866-yillardagi German ittifoqi ham konfederativ tuzilmaga yaqin bo'lgan.

Hozirgi zamon yangi tarixida konfederatsiyaga misol qilib, 1982-yil fevralida tuzilib, 1989-yilda tarqalib ketgan Senegal bilan Gambia Konfederatsiyasini - Senegambiyani misol qilib keltirish mumkin.

Arab davlatlaridan Misr bilan Suriya 1952-yili birlashib, Birlashgan Arab Respublikasi Konfederatsiyasini tashkil etishga urinib ko'rishgan, biroq ma'lum vaqtdan keyin bu davlatlar ittifoqi tarqab ketgan. Hozirgi kunda, Bosniya va Gersegovina Respublikasini mohiyatan Konfederatsiya deyish mumkin.

5. Avtonomiya.Avtonomiya turlari

Davlatlarning hududiy tuzilishi haqida gap ketganda, albatta, avtonomiya shakliga to'xtalish lozim. Avtonomiya tushunchasi aslida yunoncha so'z bo'lib, "o'zini o'zi boshqarish" ma'nosini anglatadi.

Avtonomiya bu - davlatning muayyan qismining ichki o'zini o'zi boshqarishi bo'lib, bu qism davlatning boshqa qismlaridan ba'zi maxsus jihatlari,

masalan tarixiy, madaniy, diniy, maishiy, til, jo'g'rofiy, milliy jihatlari bilan farqlanadi. Demak avtonomiya, bu o'sha hududda zich yashaydigan aholining tarixiy, madaniy, diniy, til, jo'g'rofiy, milliy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda, tashkil etiladigan alohida birlikdir (masalan, Fransiyada Korsika, Buyuk Britaniyada Shimoliy Irlandiya).

Avtonomiyalar u yoki bu jihatdan davlat belgilarining ayrim elementlariga ega bo'ladi. Avtonomiyalar aksariyat hollarda unitar davlat tuzilishi shaklidagi davlatlarda bo'lib, federatsiya ko'rinishidagi davlatlarning federatsiya subyektlarida kamdan-kam hollarda avtonomiyalarni uchratish mumkin (Hindistonning ayrim shtatlarida).

Avtonomiyalarning har qanday shaklida davlat tomonidan o'zining avtonomiyalari ichki ishlariga aralashishiga yo'l qo'yiladi. Masalan, avtonomiya organlari davlat Konstitutsiyasi normalariga rioya etmagan hollarda (Ispaniya va boshqalar). Avtonom tuzilmalar, qoidaga ko'ra, alohida qonun va statut bilan mustahkamlangan bo'ladi va avtonomiyaning qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilinadi hamda umumdavlat parlamenti tomonidan tasdiqlanadi. Bu qonunlar umumdavlat qonunchiligiga mos holda qabul qilinadi. Mabodo avtonom birlik umumdavlat qonuniga zid qaror qabul qilsa, markaziy hukumat unga o'z irodasini o'tkazadi.

Avtonomiyalarning huquqiy maqomi aksariyat hollarda davlatlarning konstitutsiyalarida (Italiya) yoki maxsus qonun bilan alohida mustahkamlab qo'yiladi.

Avtonomiyalar ko'p hollarda davlatning vakolatli organlari tomonidan qonun qabul qilish orqali (Iroqda 1974-yil), tegishli hududda referendum o'tkazish orqali va ushbu hududda yashovchi xalqlarning uzoq muddatli kurashi natijasida tashkil topishi mumkin.

Avtonomiyaning turlari juda ko'p va shunga muvofiq ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- **milliy-hududiy;**
- **milliy madaniy.**

Milliy-hududiy (etnohududiy avtonomiya)- biror bir etnik guruhga tegishli aholining bir hududda zich yashashi natijasida yagona hududiy birlikka nisbatan beriladigan avtonomiya maqomi. Milliy-hududiy avtonomiyalar o'z navbatida ikkiga **siyosiy** va **ma'muriy** avtonomiyalarga bo'linadi.

Siyosiy avtonomiya davlatning ma'lum bir hududiy birligiga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy munosabatlarda bir muncha kengroq imtiyoz hamda vakolatlar berilishi bilan tavsiflanadi.

Siyosiy avtonomiya subyekti deyarli barcha davlatning tashqi belgilariga, ya'ni o'z parlamentiga, hukumatiga, fuqaroligiga, mahalliy qonunchiligiga, davlat ramzlariga ega bo'ladi. Ba'zi hollarda esa o'z Konstitutsiyasiga yoki uning o'rnini bosadigan maxsus aktga ega bo'ladi. Siyosiy avtonomiyaga misol qilib, Shimoliy Irlandiyani, Shimoliy Irlandiyadan tashqari yana Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan qirolligi tarkibiga kirmaydigan Normand orollari va Men orolini ham siyosiy avtonomiya subyektlari deyish mumkin. Bundan tashqari, Daniyaga qarashli yana Grenlandiya va Farer orollarini ham siyosiy avtonomiyalar turkumiga kiritish bo'ladi.

Ma'muriy avtonomiya hududiy birlikning o'ziga xos jo'g'rofiy joylashganligi munosabati bilan hamda etnik va milliy holatlarni inobatga olib tashkil etiladi.

Avtonomiya masalan, orol yoki borish qiyin bo'lgan joylarda, tog'li rayonlarda joylashgan bo'lsa, bu shakl amal qiladi. Ma'muriy-hududiy avtonomiyaning huquqiy maqomi siyosiy avtonomiyadagidek, keng emas. Bunday avtonomiyalarda ham o'zlarining qonun chiqaruvchi organi, o'z hukumati, boshqaruv tizimi bo'lishi mumkin. Bunday avtonomiyaga odatda, Italiyaning Sitsiliya, Sardiniya orollarini, Portugaliyaning avtonomiyasi hisoblangan Azor va Madeyra orollarini kiritish mumkin.

Madaniy-milliy avtonomiya bunda muayyan bir etnik guruhga o'zlarining milliy rivojlanishini ta'minlash, ya'ni milliy madaniyatini rivojlantirish, o'z ona tilida maktablar, teatrlar ochish, radioteleko'rsatuvlarlar olib borish imkoni beriladi hamda ushbu guruhlar davlatning birgina hududiy birligida emas, balki, butun

mamalakat hududida tarqoq tarzda yashaydilar va o'zlarining avtonom huquqlarini alohida etnik jamoat birlashmalari orqali amalga oshiradilar. Masalan, Avstriyada bunday holat vengrlarga, slovenlarga nisbatan qo'llaniladi.

Chudakov M.F. va Chirkin V.E.ning fikricha, etnik omilga bog'liq holda, amal qiladigan avtonomiyaning yana quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

personal avtonomiya – bunday avtonomiyada mamlakat hududida tarqoq yashaydigan milliy ozchilikni tashkil etgan etnik guruhlarining alohida jamoat birlashmalari hamda organlari orqali fikrini hisobga olish ta'minlanadi. Bunda markaziy organlar yoki maxsus tashkil etilgan organlar faoliyatida mazkur etnik guruhning vakilligi ta'minlangan bo'ladi. Bunga misol qilib, Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiyada yashaydigan saami etnik guruhini misol tariqasida keltirish mumkin, chunki, bu uch davlatda ham saam parlamentlari tashkil etilgan bo'lib, ular madaniy-siyosiy organlar hisoblanadi;

korporativ avtonomiya - davlatning markaziy organlarida muayyan bir millatni tashkil etuvchi mutaxassislar uchun ma'lum sonli o'rinlar zahira tarzida belgilab qo'yiladi, ya'ni mahalliy aholi uchun ma'lum bir darajada kvota ajratiladi. Davlat apparati xodimlari mahalliy tilni bilishlari kerak;

hududiy avtonomiya milliy ozchilikni tashkil etgan etnik guruh zich joylashgan bo'lsa - bunday avtonomiya shakli tashkil etilishi mumkin. Bu holda, o'sha tashkil etilgan birlikning nomida etnik guruhning nomi ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday avtonomiyaga misol qilib, Ispaniyadagi Basklar diyori va Kataloniyaning keltirish mumkin.

Aytish kerakki, ayrim avtonom tuzilmalar juda keng huquqlardan foydalanishadi (masalan, Italiya va Ispaniyadagi avtonomiyalar).

Avtonom birliklardan tashqari yana ***tobe hududlar*** maqomidagi joylar ham mavjud. Tobe hududlar avtonomiya hisoblana olmaydi, chunki, ularning huquqlari ancha kam. Odatda, tobe hududlar sobiq koloniyalar hisoblanadi. Tobe hududlar garchi turli maqomga ega bo'lsalar-da, ulardagi umumiy jihatlar quyidagilardir: suverenitetga ega emaslik, vakillik organining yo'qligi va boshqalar (masalan, Buyuk Britaniyaga qarashli Angiliya)

Undan tashqari jahon amaliyotida ***davlatlarning hamkorlik shakllari*** ham mavjuddir. Ularga qo'yidagilar kiradi: hamdo'stlik, hamjamiyat, ittifoqlar, uniyalar, protektorat. Misol tariqasida, hozirgi kunda davlatlar o'rtasida harbiy, iqtisodiy va boshqa masalalar bo'yicha tuzilgan ko'plab birlashmalar, hamdo'stlik shaklidagi ittifoqlar mavjud.

Hamdo'stlik davlat bo'lmaganligi uchun milliy vakolatlarga ega emas. Hamdo'stlik xalqaro huquqning teng subyektlari tomonidan milliy suverenitet asosida tashkil etilgan davlatlar birlashmasidir. Ularga, masalan, Shimoliy Atlantika harbiy ittifoqi NATO, Mustaqil davlatlar Hamdo'stligini kiritish mumkin. Ba'zi adabiyotlarda ularni konfederatsiyaga kiritishsa, ba'zilarida kiritishmaydi.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi (MDH) sobiq Ittifoqning ayrim respublikalari tomonidan tuzilgan edi. 1993-yil 22-yanvarda Minskda MDHning ustavi qabul qilingan. MDHning maqsadlari qo'yidagilardan iborat:

birinchidan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik, insonparvarlik va boshqa sohalarida hamkorlikni amalga oshirish;

ikkinchidan, umumiy iqtisodiy makonni yaratish;

uchinchidan, umuminsoniy tamoyillar va insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash;

to'rtinchidan, a'zo davlatlarning xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash va qurolsizlanishga yo'naltirilgan hamkorliklarni amalga oshirish;

beshinchidan, a'zo davlatlar fuqarolarining hamdo'stlik hududida erkin yurishlari va muloqotlarini ta'minlash;

oltinchidan, nizo va kelishmovchiliklarni tinch yo'llar bilan hal etish va boshqalar.

MDHning oliy organi davlatlar boshliqlarining Kengashi hisoblanadi. Kengash a'zo davlatlar umum manfaatlari doirasida davlatlar faoliyatini muhokama etish va qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lib, u yiliga ikki marta yig'iladi.

Hamjamiyat - teng huquqli davlatlar tomonidan tashkil etilgan davlatlar

birlashmasi. Hamjamiyatning hamdo'stlikdan farqi shundaki, hamdo'stlikda o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlar davlat organlari miqyosida bo'ladi. Hamjamiyatda bunday munosabatlar yanada chuqurlashib, ijtimoiy-madaniy muhitning uyg'unlashib ketishi kuzatiladi.

Protektorat (*lot. protector* – qaramog'iga oluvchi, homiy) – bu davlatlar hamkorligining shunday shakli, bunda bir davlat ichki siyosatda avtonomligini saqlab qolgan holda, xalqaro munosabatlarda ikkinchi davlatning suverenitetini tan olishidir. Masalan, Gruziya 1786-1801-yilda Rossiyaning, Bahrayn mustaqillikka erishgunga qadar Buyuk Britaniya protektoratligi ostida bo'lgan.

Uniya (*unio-* yagona) – monarxiya davlatlarining o'zaro ittifoqqa birlashishiga asoslangan davlatlar hamkorligining shaklidir. Uniyada davlatlar ittifoqi yagona monarx tomonidan boshqariladi. Uniyaga birlashgan davlatlar o'z davlat tuzumini saqlab qoladi, lekin ularning suvereniteti yagona bo'lib, u monarx qo'li ostida bo'ladi. Bunga misol sifatida Avstriya-Vengriyani keltirish mumkin.

Uniya o'z mazmuniga ko'ra konfederativ davlat tuzilishi shakliga o'xshasada, biroq undan farq qiladi. Masalan:

- konfederativ davlat ham respublika, ham monarxiya davlatlari o'rtasida vujudga kelsa, uniya faqat monarxiya davlatlari o'rtasida shakllanadi;

- konfederativ davlat shartnomalar asosida paydo bo'lsa, uniya shartnoma asosida emas, balki, bir monarxning bir nechta monarxiya davlatlari toj-taxti unga tegishliligi nuqtai nazaridan tuziladi. Uniyalar o'rtasida shartnomalar tuzilsa-da, bu shartnomalar uniya vujudga kelishining asosi bo'lib xizmat qilmaydi;

- konfederativ davlatda davlatlarning o'zaro munosabatlari (eng muhimi siyosiy munosabatlar) har tomonlama chuqur yo'lga qo'yilgan bo'ladi. Uniyada bunday holat kuzatilmasligi mumkin.

Ittifoq — davlatlarning siyosiy jihatdan birlashuvi. Ko'p belgilariga ko'ra konfederativ davlatlarga o'xshab ketadi. Misol qilib, Yevropa Ittifoqi, Sobiq Ittifoq davlatlarini ko'rsatish mumkin. Tarixdan malumki Sobiq Sovet Ittifoqi to'laqonli davlatning barcha funksiyalarini bajargan. Lekin SSSR ning davlat tuzumi, undagi g'oya noto'g'ri bo'lib chiqdi va davlat parchalanib ketdi.

Yevropa Ittifoqi esa bundan mustasno bo'lib, u davlat emas, aksincha ma'lum bir maqsad (siyosiy, iqtisodiy va hokazo) yo'lida birlashgan birlashmadir.

Xulosa

Har bir davlat o'z hududiga ega va bu hudud daxlsizligini himoya qilish uning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir davlatning yaxlit hududi muayyan tarzda, albatta, ma'lum qismlarga, bo'linmalarga bo'lingan bo'ladi. Davlat hududini bunday bo'lish uni boshqarishni osonlashtirish, samarali boshqarish maqsadlarini ko'zlaydi.

Davlatning hududi qanday tarzda tashkil etilganligini, ya'ni markaz bilan hududiy birlikning o'zaro munosabatlari qanday, qanaqa mamuriy hududiy bo'linmalarga bo'linganligi kabi masalalar "*davlatning tuzilish shakli*" degan atama bilan ancha vaqtdan beri ifodalanib kelgan. Biroq tuzilish degan ibora juda serma'no bo'lganligi tufayli, keying paytlarda konstitutsiyaviy yuridik adabiyotda "*hududiy – siyosiy tuzilish*", siyosiy hududiy tuzilish kabi atamalarni qo'llash keng tarqalmoqda.

O'zbekistonning davlat tuzilishi ham yuqoridagi ikkinchi rejadagidek unitary tuzilishga ega. Lekin mamlakatimizda davlat boshqaruvi demokratik tamoillarga asoslanadi, garchi tuzilishi unitary respublika bo'lsa ham.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha ijtimoiy islohotlarning negizida asosiy bosh g'oya qilib yurt tinchligi va xalq farovonligi maqsad qilib olingan ekan, shubhasiz xalqaro maydondagi tajribalarni o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish orqali bu maqsadlarga osonroq va jadallik bilan erishish mumkin.

Davlatlar tuzilishiga ko'ra turlicha bo'lishiga qaramay ularning huquqiy tomondan faoliyat ko'rsatishi bir xildir. Davlat boshqaruvi barcha mamlakatlarda konstitutsiyaga, hukumat chiqaradigan qonun va qarorlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Dunyodagi har bir davlatning o'z hududiy tuzilishi mavjud. Shu jumladan har bir davlatning hududiy tuzilishining tarixiy o'tmishi ham mavjud. Yevropa davlatlarining hududiy tuzilishini tarixda (XX asr boshlari va ushbu asrning o'rtalarida) ikki hodisa belgilab berdi. Bu hodisalar birinchi va ikkinchi jahon urushi edi. Ba'zi davlatlarning hududi kengaydi va aksincha boshqa biri esa o'z

hududining malum bir qismidan ajraldi. G'olib davlatlarning qabul qilgan qarorlari natijasida ba'zi davlatlar unitary davlatga, boshqalari federatsiyaga aylandi. Mag'lub davlatlarning ba'zilari esa avtonomiya ko'rinishiga o'tib qilishdi ya'ni soddaroq qilib aytganda siyosiy, iqtisodiy va huquqiy qaramga aylandilar.

Davlatning hududiy – siyosiy tuzilishi bu davlatning siyosiy – hududiy tuzilmasi, ya'ni yaxlit davlat hududining qismlarga bo'linishining muayyan tartibi, ularning huquqiy holati, markaziy organlarining hududiy bo'linmalar bilan o'zaro munosabatidir.

Demak, davlatning hududiy siyosiy tuzilishi o'zida mana shu masalalarni ifoda etadi va ular ta'siri ostida shakllanadi. Shu munosabatlar bilan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyasida davlatning siyosiy hududiy tuzilishi qanday mustahkamlanganligi masalasi muayyan qiziqish uyg'otadi.

Shuni alohida takidlash kerakki, deyarli barcha davlatlarning konstitutsiyalarida davlatning hududiy tashkil etilishi mustahkamlangan, lekin faqat bir xilda emas, ya'ni ba'zi davlatlar konstitutsiyalari aniq qilib, davlatning hududiy tuzilishini belgilab qo'ygan bo'lsa, ba'zi davlatlarning konstitutsiyalarida to'g'ridan – to'g'ri mustahkamlanib qo'yilmaydi, biroq konstitutsiyaning boshqa moddalari mazmunidan kelib chiqib, ushbu davlatning hududiy tuzilish shakli qanaqa ekanligi bimalol ayon bo'lib turadi.

Hatto, ba'zi konstitutsiyalarda davlatning bir tuzilish shakliga ega ekanligi ko'rsatilgan holda, amalda boshqa shaklga mansub bo'ladigan holler ham uchray turadi. Masalan, Shvetsariya Respublikasi konfederatsiya deb atalsa-da aslida u federativ tuzilish shakliga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. I.A.Karimov “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida”, 16 jild.Toshkent “O'zbekiston” nashryoti-matbaa ilodiy uyi 2008-yil
2. I.AKarimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” Toshkent. “Ma'naviyat” nashryoti 2008-yil
3. I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafoloti” Toshkent. “O'zbekiston nashryoti” 1997-yil.
4. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi; darslik/ Mas'ul muharrir: prof. A.A.Azizxo'jayev. TDYuI nashryoti, 2009-yil.
5. Lukashuk I.I., Saidov A.X., Xalqaro huquq nazariyasi asoslari: Darslik – T. “Sharq”, 2004-yil.

Elektron adabiyotlar ro'yxati;

- 1) www.vikiped.uz
- 2) www.google.ru
- 3) www.ziyonet.uz